


2019-yil 1-oktyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida Respublikamizda 3144 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1059 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2791 ta (17,8 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 18504 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-oktyabr holatiga 18504 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,8 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 22,6 % savdo, 12,4 % sanoat, 11,8 % qurilish, 11,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 27,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.10.2019 yil	
	01.10.2018 yil	01.10.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	15713	18504	117,8	100
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1956	2094	107,0	11,3
Sanoat	1729	2295	132,7	12,4
Qurilish	1665	2180	130,9	11,8
Savdo	3228	4183	129,6	22,6
Tashish va saqlash	772	857	111,0	4,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	915	1139	123,5	6,2
Axborotvaaloqa	311	334	107,4	1,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	285	353	123,9	1,9
Boshqa turlari	4852	5069	104,5	27,4


Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5703 ta), To'rtko'l (1910 ta), Beruniy (1533 ta) va Amudaryo (1381 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Taxtakopir (345 ta), Mo'ynoq (393 ta) hamda Shumanay (454 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 18031 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2801 taga (18,4 %) o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,6 % savdo, 12,4 % sanoat, 11,9 % qurilish, 11,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5622 ta), To'rtko'l (1808 ta), Beruniy (1498 ta) Amudaryo (1328 ta) va Ellikkala (1151 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Taxtakopir (331 ta), Mo'ynoq (389 ta) hamda Shumanay (446 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 3144 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 50,8% ga o'sgan.

**Yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalarva tashkilotlarning
yillar kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Nukus shahri (932 ta), To'rtko'l (325 ta), Amudaryo (232 ta) va Beruniy (222 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Taxtakopir (56 ta), Qanliko'l (79 ta) hamda Shumanay (83 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1068 ta), sanoat (621 ta), qurilish (484 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (247 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlash (106 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (61 ta), axborot va aloqa (59 ta) hamda faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-oktyabr holatiga 14406 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 3124 ta, oilaviy korxonalar - 963 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 10018 ta, unitary korxonalar - 129 ta, aksiyadorlik jamiyatlar - 27 ta va boshqalar 145 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonalar




Oilaviy korxonalar




Unitar korxonalar



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 143 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 34 taga yoki 31,2 %ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokida korxonalar va tashkilotlarning eng yuqorisi Nukus shahrida (33 ta), Mo'ynoq (19 ta), Taxiotosh va Nukus tumanlarida (10 tadan) hamda Qorauzak (9 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari To'rtko'l va Xo'jayli (3 tadan) tumanlarida kuzatilgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 83 tasi qo'shma korxonalar, 60 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollikdarajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlarning tumanlar kesimida soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	143	100
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	6	4,2
Beruniy	8	5,6
Qorauzak	9	6,3
Kegeyli	9	6,3
Qong'iroq	6	4,2
Qonlikol	6	4,2
Mo'ynoq	19	13,3
Nukus	10	7,0
Taxiatosh	10	7,0
Taxtakupir	6	4,2
Turtkul	3	2,1
Xujayli	3	2,1
Chimboy	5	3,5
Shumanay	5	3,5
Ellikqala	5	3,5
Nukus sh.	33	23,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 28 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga ko'paygan.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Nukus shahar (12 ta yoki jumladan ulushi 42,9 %), Mo'ynoq tumanida (3 ta yoki 10,7%), Beruniy, Qorao'zak va To'rtko'l tumanlari (2 tadan yoki 7,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Amudaryo, Kegeyli, Qanliko'l, Nukus Taxiato'sh, Shumanay va Ellikkala tumanlari (1 tadan yoki 3,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.


2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 11 ta, Qozog'iston Respublikasi - 6 ta Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi hamda Britaniyaning Virjiniya Orollari mamlakatlarida - 2 tadan, Niderlandiya Qirolligi, Turkiya Respublikasi va Gruziya Respublikasi - 1 tadan korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (10 ta), savdo (8 ta), qurilish (2 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (6 ta) faoliyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlashva ijtimoiy xizmatlarda hamda tashishva saqlashda (1 tadan) tashkil etgan.


2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagikorxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 14331 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-oktyabr holatiga qaraganda 23,1 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4739 tasi (33,1 %) Nukus shahri, 1549 tasi (10,8 %) To'rtko'l, 1205 tasi (8,4 %) Beruniy hamda 1021 tasi (7,1 %) Amudaryo tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
tumanlar kesimida jamidagi ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14331 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4055 tasi (28,3 %) - savdo, 2216 tasi (15,5 %) - sanoat, 2134 tasi (14,9 %) - qurilish, 1946 tasi (13,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1105 tasi (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 829 tasi (5,8 %) - tashish va saqlash, 280 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasi, 251 tasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1515 tasi (10,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 2993 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 80,5 % oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahri (885 ta), To'rtko'l (311 ta), Amudaryo (224 ta) va Beruniy tumanlari (201 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Taxtakopir (54 ta), Qanliko'l (78 ta), Shumanay (80 ta) hamda Qorao'zak (88 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1068 ta), sanoatda (621 ta), qurilishda (483 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (245 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (106 ta), axborot va aloqada (59 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (43 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-oktyabr holatiga 991 tani tashkil etib, ulardan 963 tasi yoki 97,2 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 56,5 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 27,7 % yoki 267 tasi sanoat, 25,2 % yoki 243 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 26,9 % yoki 259 tasi savdo, 6,2 % yoki 60 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,5 % yoki 5 tasi tashishva saqlash, 2,2 % yoki 21 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % yoki 10 tasi qurilish, 1,8 % yoki 17 tasi axborot va aloqa hamda 8,5 % yoki 81 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




2019-yilning 1-oktyabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat, savdo hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa qurilish hamda tashishva saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimida soni, birlikda


	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	317	100
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	85	26,8
Beruniy	12	3,8
Qorauzak	1	0,3
Kegeyli	9	2,8
Qongirot	11	3,5
Qonlikol	20	6,3
Mo'ynoq	8	2,5
Nukus	11	3,5
Taxiatosh	24	7,6
Taxtakupir	8	2,5
Turtkul	27	8,5
Xujayli	16	5,0
Chimboy	4	1,3
Shumanay	3	1,0
Ellikqala	21	6,6
Nukus sh.	57	18,0

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 317 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,2 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Amudaryo tumanida (85 ta), Nukus shahrida (57 ta), Taxiatosh tumanida (24 ta) va To'rtko'l (27 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorao'zak (1 ta), Shumanay (3 ta) hamda Chimboy (4 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


2019-yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Sanaot



Savdo




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Tashish va saqlash




Qurilish



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,7 % yoki 94 tasi sanoat, 39,1 % yoki 124 tasi savdo, 16,7 % yoki 53 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 3,8 % yoki 12 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 5 tasi qurilish, 1,3 % yoki 4 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 1,9 % yoki 6 tasi axborot va aloqa hamda 5,6 % yoki 18 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi.**
Tel.:71-230-82-23(24)